



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

O'ZBEK TILI FITONIMIK LEKSIKASINING SHAKLLANISHI, MANBALARI VA TARAQQIYOTI

Saidov Yoqub Siddiqovich

*Buxoro davlat universiteti
tilshunosligi va jurnalistika kafedra
professori, filologiya fanlar dotsenti*

Bahromova Gulyora G'ayratovna

*Buxoro davlat universiteti o'zbek
tilshunosligi va jurnalistika
kafedrasi magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqola onomastika bo'limining tarkibiy qismi bo'lgan fitonimlarning tarixi, shakllanishi va hozirgi kundagi fitonimlarning amaliy-nazariy o'rganish obyekti xususida.*

Kalit so'zlar: *fitonimlar, dorivor o'simliklar, til, tarix, onomatika.*

Annotation: *This article is about the history, formation of phytonyms, which are part of the onomastics department, and the object of practical and theoretical study of phytonyms today.*

Key words: *phytonyms, medicinal plants, language, history, onomatics.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье речь идет об истории, формировании фитонимов, входящих в состав отдела ономастики, и объекте практического и теоретического изучения фитонимов на сегодняшний день.*

Ключевые Слова: *фитонимы, лекарственные растения, язык, история, ономатика.*

O'simliklar olami tabiat boyliklaridan biridir. Bizning xalqimiz eng qadimgi davrlardan boshlab, o'simliklarning xosiyatini bilishga harakat qilishgan va ulardan turli kasalliklarni davolash uchun foydalanishgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Bakr ar-Roziy, Abu Ali Ibn Sino kabi ulug' allomalarimiz bemorlarning dardini dorivor o'simliklar bilan davolashga harakat qilganlar. O'rta Osiyo, Kavkazorti, Eron, Afg'oniston, Misr, Kichik Osiyo hududlarida yashovchi xalqlar bundan taxminan 5-6 ming yil muqaddam ham o'z hududlaridagi o'simliklarning tarqalishi, o'sishi va xususiyatlarini o'rganishga harakat qilishgan.

Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy o'sha davr tarixi, madaniyati, hayvonot va nabotot olami yoritilgan bir nechta asarlarni yozib qoldirgan. Bularga "Xronologiya", "Hindiston", "Geodeziya", "Minerologiya", "Mas'ud qonuni", "Saydana" kabi asarlari kiradi. Ayniqsa, uning umrining so'nggi yillarida Mahmud



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

G'aznaviyning vorisi Ma'dud sultonligi davrida 1048-yilda yozilgan "Kitob as-Saydana fi-t tibb" nomli asari diqqatga sazovordir. Bu asar dorivor o'simliklar, hayvonlar va madanlar tavsifiga bag'ishlangan. "Saydana"ning qimmatli tomoni shundaki, unda dorivor o'simliklarning bir nechta tillardagi nomlari keltirilgan. Bu asarda Beruniy Sharq, ayniqsa Markaziy Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning to'la tavsifini bergan. Jumladan, asarda 1116 tur dorivorni tavsiflaydi. Shundan 750 turi o'simliklardan, 101 turi hayvonlardan, qolgan 255 turi minerallardandir. Beruniy izoh bergan dorivor fitonimlarning bir nechtasi bilan tanishtirib o'tamiz:

Shuningdek, buyuk allomamiz bo'lgan Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" va "Kitobush-shifo" kabi asarlarida O'rta Osiyoda o'sadigan ko'plab dorivor o'simliklarning xususiyatlari haqida keltirib o'tadi. Bundan tashqari til va adbiyot sohasining yetuk namoyondasi, inson va tabiat go'zalligini madh etuvchi alloma sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgan Bobur ham o'zining "Boburnoma" asarida hayvonot va nabobot olamini chuqur ilmiy izohlar bilan keltirib o'tgan. Hindistonda o'sadigan ayrim fitonimlar ilk bor "Boburnoma" asarida keltirilgan. Masalan:

T/r "Boburnoma" da nomi keltirilgan ayrim fitonimlar

- 1Nag'zak (mango)
- 2Badhal(non daraxti)
- 3Beyr(anjir)
- 4Ja'mun(qalampirmunchoq)
- 5Javzi buyo(muskat yong'oqi)
- 6Kaval kakriy(nilufar)
- 8Kaneyr(sambitgul)
- 9Kunor(chilonjiyda)
- 10Noranj(apelsin)
- 11 Nargil(kokos palmasi)
- 12Tindu (oq safson mevasi)
- 13Champa(yosuman)
- 14Banan

Bugungi kunda ham yurtimizda fitominlarga bo'lgan qiziqish kattadir. Shifobaxsh o'simliklar bilan nafaqat biologlar va zoologlar, tabobat ilmi sohiblari, balki tilshunos olimlar ham qiziqib, turli risola-yu darsliklar yozishgan. Jumladan, D.Yormatovanning "O'simlikshunoslik", H.Yo'ldoshevning "O'simlik kasalliklari", N.O'ljaboyevaning "Xalq tabobati xazinasidan javohirlar" va bu bilan bir qatorda, ko'plab lug'atlar ham yozilgan.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

O'zbek tilida qo'llanilayotgan fitonimlar tadqiqi grammatik, leksik, semantik jihatdan ham ahamiyatli bo'lib, ularning mazmunini aniqlashda o'simliklar nomlarini chuqur tahlil qilish yordam beradi. Biz yuqorida tilga olgan o'simlik nomlari hozirgi davr o'simlik nomlaridan talaffuzda ham, nomlanish jihatidan ham boshqacha ko'rinishga ega. Biz hozirda oldingi nomlar bilan atalgan ayrim fitonimlarni hozirda boshqa nomlar bilan ataymiz. O'simlik nomlarini ifodalovchi lug'aviy birliklarga nisbatan lingvistik tadqiqotlarda o'simlik nomi, o'simliklarni ifodalovchi leksemalar, o'simlik otlari, o'simliklarni atovchi otlar, botanik terminlar, fitonim, fitonimik leksika, floristik leksika kabi terminlari qo'llangani kuzatiladi. Bu birliklardan ayrimlarining ma'no mundariyasi, o'zaro G.Ne'matovanning dissertatsiyada tahlil qilingan. Fitonim grekcha Phuton- o'simlik + onoma-atoqli ot, bionim (yun.biog-bios, hayot+onoma-nom)lar. Fitonim termini ilmiy neologizm sifatida rus tilshunosligida XX asrning 70-yillarida yuzaga kelgan, keyinroq o'zbek onomastikasiga ham o'zlashgan. Masalan, O'zbekistonda o'rikning Oqo'rik, Shalax, Ruhi Juvanon, Mohtobi Ahroriy, Subhoniy, Gulungi, Ko'rsodiq, Xurmoi, Isfarak, Javpazak, kabi nomlari bor. Mazkur nomlar o'rik apellyatividan farqli o'laroq o'rik navlarini ifodalovchi maxsus atoqli nom sifatida fitonimlardir.

O'zbek onomastikaga oid manbalarda fitonimlar keng ko'lamni o'rganilmagan. Lekin fitonimika o'rganadigan ilmiy-nazariy va amaliy masalalar keng. Fitonimika fitonimlar bilan bog'liq quyidagi masalalarni:

- 1) o'simliklarning atoqli nomlari-fitonimlarning paydo bo'lishi va shakllanishining lisoniy, nolisoniy omillarini;
- 2) o'simliklarning nomlanishiga doir tarixiy, xalqona an'analarni;
- 3) fitonimik indikatorlarning lisoniy xususiyatlarini va fitonimlar tarkibidagi vazifasini;
- 4) o'simliklarning nomlanish tamoyillarini;
- 5) fitonimlarning tarixiy va zamonaviy shakllarini hamda fitonimlardagi lisoniy o'zgarishlarni;
- 6) fitonimlarning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlarini; fitonimlarning morfemik va yasalish modellarini;
- 8) tilning apellyativ leksikasi bilan fitonimik leksikasi munosabatlarini;
- 9) fitonimlarning boshqa bionim turlari: antroponimlar va zoonimlar, ornitonimlar bilan munosabatini va bundagi vazifaviy o'tishlarni;
- 10) folklor, tarix botanikaga oid asarlardagi va qadimiy qo'lyozmalardagi fitonimlarning yaratilishi bilan bo'g'liq ma'lumotlarni;
- 11) fitonimlarning mahalliy lahja va shevalarga oid xususiyatlarini;



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

- 12) fitonimlarning etimologiyasini;
- 13) fitonimlarni tasniflash bilan bog'liq ilmiy va amaliy masalalarni;
- 14) fitonimik xarita va lug'atlar tuzish tamoyillarini o'rganishi lozim.

Fitonimika onomastikaning bir bo'limi sifatida o'zining o'rganish obyekti va predmetiga ega. Demak, fitonimika ham tilshunoslikning nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sohalaridan biri hisoblanadi. O'simliklarning nomlari fitonimlar, ularning majmui fitonimiya deb yuritiladi. O'zbek tili fitonimiya sohasi yana ham keng o'rganilishi zarur bo'lgan sohalaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Madaliyeva Y., O'zbek tilida fitonimlarning leksik-semantik va tematik xususiyatlari//“PEDAGOGS”international research journal ISSN: 2181-4027_ SJIF: 4.995-www.pedagoglar.uz-Volume-23, Issue-1, December -202269
- 2.Murodova N., O'zbek tilida fitonimlar:BMI
- 3.Uz.m.wikipedia.org
- 4.Hathe Asiet. Kognitiv va lingvokulturologik o'simlik dunyosining nominatsiyalari xususiyatlari.Muallif.Filol.fanlar.dok. Maikop. 2010 p. 6-18